



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 04 | pp. 44-50 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

KIMYO SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING MAKROIQTISODIY TAHLILI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI



Vaxobov Shohjahon Valiyevich

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kimyo sanoati korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishning makroiqtisodiy jihatlari hamda rivojlanish tendensiyalari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot davomida jahon kimyo sanoati rivojlanish dinamikasi, global struktura va yetakchi davlatlar tajribasi o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, kimyo sanoati yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi va multiplikativ ta‘sirga ega strategik tarmoq hisoblanadi. Resurslardan samarali foydalanish darajasi tarmoqning raqobatbardoshligi, energiya samaradorligi va innovatsion rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Shuningdek, raqamlashtirish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillari hamda texnologik modernizatsiya jarayonlari samaradorlikni oshirishning muhim omillari sifatida aniqlangan. Maqolada resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiy resurslardan foydalanishni integratsiyalashgan yondashuv asosida boshqarish bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kimyo sanoati, iqtisodiy resurslar, resurslardan samarali foydalanish, makroiqtisodiy tahlil, rentabellik, energiya samaradorligi, innovatsion rivojlanish, raqamlashtirish, yashil iqtisodiyot, multiplikativ ta‘sir, raqobatbardoshlik.

Аннотация. В данной статье проведён комплексный анализ макроэкономических аспектов и тенденций развития эффективного использования экономических ресурсов на предприятиях химической промышленности. В ходе исследования изучены динамика развития мировой химической промышленности, её глобальная структура и опыт ведущих стран. Полученные результаты показали, что химическая промышленность является стратегической отраслью, создающей высокую добавленную стоимость и обладающей мультипликативным экономическим эффектом. Уровень эффективного использования ресурсов напрямую связан с конкурентоспособностью отрасли, энергоэффективностью и инновационным развитием. Кроме того, установлено, что цифровизация, принципы «зелёной экономики» и процессы технологической модернизации являются важнейшими факторами повышения эффективности. В статье разработаны научные выводы по внедрению ресурсосберегающих технологий и управлению экономическими ресурсами на основе интегрированного подхода.

Ключевые слова: химическая промышленность, экономические ресурсы, эффективное использование ресурсов, макроэкономический анализ, рентабельность, энергоэффективность, инновационное развитие, цифровизация, зелёная экономика, мультипликативный эффект, конкурентоспособность.

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the macroeconomic aspects and development trends of efficient use of economic resources in chemical industry enterprises. The study examines the dynamics of the global chemical industry, its structural composition, and the experience of leading countries. The findings indicate that the chemical industry is a strategic sector characterized by high value-added creation and a strong multiplicative economic effect. The level of efficient resource utilization is directly associated with industry competitiveness, energy efficiency, and innovative development. Furthermore, digitalization, green economy principles, and technological modernization processes have been identified as key drivers of efficiency improvement. The paper develops scientific conclusions on the implementation of resource-saving technologies and the integrated management of economic resources.*

Keywords: *chemical industry, economic resources, efficient resource utilization, macroeconomic analysis, profitability, energy efficiency, innovative development, digitalization, green economy, multiplicative effect, competitiveness.*

Kirish

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida kimyo sanoati yuqori qoʻshilgan qiymat yaratuvchi, kapital va resurs talabchan tarmoqlardan biri sifatida alohida oʻrin egallaydi. Mazkur tarmoq sanoat ishlab chiqarish zanjirining muhim boʻgʻini boʻlib, qishloq xoʻjaligi, energetika, farmatsevtika va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish sohalari bilan uzviy bogʻlangan holda iqtisodiyotda kuchli multiplikativ taʼsirni taʼminlaydi. Shu bois kimyo sanoatida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish masalasi nafaqat korxonalar darajasida, balki makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy oʻsishni taʼminlash nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Soʻnggi yillarda jahon kimyo sanoati jadal surʼatlarda rivojlanib, uning global bozori hajmi izchil kengayib bormoqda. Bunda resurslardan foydalanish samaradorligi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish jarayonlari hal qiluvchi omil sifatida namoyon boʻlmoqda. Ayniqsa, energiya va xomashyo resurslariga boʻlgan yuqori talab kimyo sanoatida resurs tejovchi va energiya samarador texnologiyalarni joriy etishni strategik ustuvor yoʻnalishga aylantirmoqda.

Global iqtisodiy makonda kimyo sanoati ishlab chiqarishining asosiy qismi yetakchi davlatlar hissasiga toʻgʻri kelib, bu tarmoqda yuqori samaradorlik, texnologik ustunlik va masshtab effektining muhimligini koʻrsatadi. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda raqamlashtirish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillari va innovatsion rivojlanish omillari kimyo sanoatida iqtisodiy resurslardan foydalanish jarayonini tubdan transformatsiya qilmoqda.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi: statistik tahlil usuli – kimyo sanoati global va milliy koʻrsatkichlarini baholash uchun, taqdimiy (deskriptiv) tahlil – sanoat dinamikasi va strukturaviy oʻzgarishlarni aniqlash uchun, taqqoslama tahlil – yetakchi davlatlar (Xitoy, AQSh, Yevropa Ittifoqi) tajribasini oʻrganish uchun, tizimli yondashuv – iqtisodiy resurslarni yagona integratsiyalashgan tizim sifatida baholash uchun, iqtisodiy-matematik yondashuv elementlari – resurslardan foydalanish samaradorligini umumlashtirish uchun.

Adabiyotlar sharhi

Kimyo sanoatida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli nazariy va amaliy yondashuvlar asosida o'rganilgan. Xususan, Michael Porter o'zining raqobat ustunliklari nazariyasida tarmoq raqobatbardoshligi resurslardan samarali foydalanish, innovatsion faollik va qiymat zanjiri samaradorligi bilan belgilanishini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, kimyo sanoati kabi kapital sig'imli tarmoqlarda samaradorlikni oshirish asosan texnologik modernizatsiya va klasterlashuv orqali ta'minlanadi[1].

Manuel Castells esa tarmoqlarning raqamli transformatsiyasiga alohida e'tibor qaratib, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish raqamli infratuzilma va axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bevosita bog'liq ekanini ta'kidlaydi[2]. Uning yondashuviga ko'ra, zamonaviy sanoat tarmoqlarida, jumladan kimyo sanoatida, raqamlashtirish resurslar samaradorligini oshirishning asosiy drayveriga aylanmoqda.

Vaclav Smil tadqiqotlarida sanoat tarmoqlarida energiya va xomashyo resurslaridan foydalanish samaradorligi iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida qaraladi[3]. U kimyo sanoatini yuqori energiya talabchan tarmoq sifatida baholab, energiya samaradorligini oshirish va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etishni strategik yo'nalish sifatida belgilaydi.

Shuningdek, Paul Romer endogen o'sish nazariyasi doirasida innovatsiyalar va bilimlar iqtisodiy resurslar samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil ekanini asoslab beradi[4]. Uning fikriga ko'ra, kimyo sanoatida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga investitsiyalarning ortishi tarmoqda yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatini kengaytiradi.

MDH olimlari orasida V.V. Kovalev moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini baholashda rentabellik va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining ahamiyatini ta'kidlaydi[5]. Uning yondashuviga ko'ra, sanoat korxonalarida resurslardan samarali foydalanishni baholashda kompleks moliyaviy indikatorlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq.

O'zbekistonlik olimlardan M.A. Ikramov, A.U. Burxanov va T.K. Iminovlar sanoat korxonalarida resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashda institutsional muhit, davlat qo'llab-quvvatlashi va tarmoq siyosatining ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar[6,7,8]. Ularning fikriga ko'ra, sanoat tarmoqlarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun resurslardan foydalanishni optimallashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Shunday qilib, yuqoridagi ilmiy yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kimyo sanoatida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish masalasi kompleks xarakterga ega bo'lib, u texnologik, iqtisodiy, innovatsion va institutsional omillarning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadi. Mazkur tadqiqot ana shu yondashuvlarni integratsiyalashgan holda ko'rib chiqishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar

Kimyo sanoati global industrial tizimda yuqori qo'shilgan qiymatni shakllantiruvchi, kapital sig'imi va resurs talabchanligi yuqori bo'lgan tarmoqlardan biri sifatida jahon iqtisodiy o'sishining asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tarmoq nafaqat sanoat ishlab chiqarish zanjirining markaziy bo'g'ini sifatida namoyon bo'ladi, balki agrar sektor, energetika kompleksi, farmatsevtika industriyasi hamda yuqori texnologiyalarga

asoslangan ishlab chiqarish sohalari bilan uzviy integratsiyalashgan holda kuchli multiplikativ iqtisodiy samarani ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, kimyo sanoati korxonalarida iqtisodiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish masalasi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashning ustuvor shartlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Jahon xo'jaligida kimyo sanoati sektori yuqori sur'atlar bilan rivojlanib, uning bozor hajmi muntazam ravishda kengayib bormoqda. Xalqaro analitik ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yilda jahon kimyo sanoati bozorining umumiy qiymati 5,7 trln AQSH dollaridan oshgan bo'lib, 2030 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 7 trln AQSH dollariga yaqinlashishi kutilmoqda[1]. Ushbu ijobiy dinamika tarmoqda resurslardan foydalanish samaradorligining ortishi, texnologik modernizatsiya jarayonlarining faollashuvi hamda innovatsion rivojlanishning jadallashuvi bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, energiya va xomashyo resurslariga bo'lgan yuqori ehtiyoj kimyo sanoatida resurs tejamkor va energiya samarador texnologiyalarni joriy etishni strategik ahamiyatga ega vazifaga aylantirmoqda.


Global kimyo sanoati strukturasi tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish hajmining asosiy qismi bir qator etakchi iqtisodiyotlar hissasiga to'g'ri keladi. Xususan, Xitoy jahon kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishining taxminan 43 foizini tashkil etgan holda mutlaq etakchi o'rinni egallagan, Evropa Ittifoqi mamlakatlari 14 foiz va AQSH 13 foiz ulush bilan keyingi pozitsiyalarda joylashgan[1]. Ushbu holat tarmoqda iqtisodiy resurslardan foydalanish jarayoni global raqobat muhitida yuqori samaradorlik, texnologik ustunlik va masshtab effekti asosida tashkil etilganligini ko'rsatadi.

Kimyo sanoati korxonalarida iqtisodiy resurslar tarkibi ko'p komponentli bo'lib, moddiy resurslar (xomashyo va energiya), mehnat resurslari, moliyaviy resurslar hamda intellektual kapitalni o'z ichiga oladi. Ushbu resurslardan foydalanish darajasi va samaradorligi tarmoqning iqtisodiy natijadorligini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Xalqaro energetika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, kimyo sanoati jahon sanoati energiya iste'molining 10–12 foizini tashkil etadi. Bu esa tarmoqning yuqori energiya sig'imli ekanligini tasdiqlaydi hamda energiya samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanishni strategik ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi[4].

Shu bilan birga, kimyo sanoati yuqori darajada qo'shilgan qiymat yaratish qobiliyatiga ega bo'lib, u iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga kuchli multiplikativ ta'sir ko'rsatadi. OECD tahlillariga ko'ra, kimyo sanoatida yaratilgan har bir 1 dollar qo'shilgan qiymat iqtisodiyotning boshqa sektorlarida o'rtacha 1,5–2 barobar qo'shimcha iqtisodiy faollikni shakllantiradi[2]. Bu holat tarmoqda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish nafaqat mikroiktisodiy (korxonalar) darajada, balki makroiqtisodiy (milliy iqtisodiyot) darajada ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Jahon kimyo sanoatida ishlab chiqarish hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tarmoqning global raqobatbardoshligi va resurslardan foydalanish samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jadvalda 2020–2025 yillar davomida kimyo sanoatida etakchi hududlar — Xitoy, Evropa Ittifoqi, AQSH va boshqa davlatlar ulushining dinamikasi aks ettirilgan. Ushbu ma'lumotlar global ishlab chiqarish

strukturasidagi o'zgarishlar, hududiy raqobat ustunliklari va iqtisodiy resurslarni taqsimlashdagi tendensiyalarni tahlil qilish imkonini beradi.



1-rasm. Jahon kimyo sanoati hajmi dinamikasi (trln \$)¹

Mazkur rasm tahlili shuni ko'rsatadiki, 2020–2025 yillar davomida ko'rsatkich barqaror va izchil o'sish traektoriyasiga ega bo'lgan. Xususan, 2020 yilda 3,9 darajadan boshlangan ko'rsatkich 2021 yilda 4,7 ga (20,5% o'sish), 2022 yilda 5,2 ga (10,6% o'sish), 2023 yilda 5,7 ga (9,6% o'sish), 2024 yilda 6,2 ga (8,8% o'sish) va 2025 yilda 6,6 ga (6,5% o'sish) etgan. Bu erda muhim jihat shundaki, mutlaq ko'rsatkich o'sib borayotgan bo'lsa-da, nisbiy o'sish sur'atlari yildan-yilga pasayib bormoqda. Bu holat tahlil qilinayotgan tizimning dastlab tez o'sish bosqichidan o'tib, keyinchalik barqaror rivojlanish va to'yinish bosqichiga o'tayotganligini anglatadi.

1-jadval

Jahon kimyo sanoatida etakchi hududlar ulushi (%) [5]

Yil	Xitoy	Evropa	AQSH	Boshqalar
2020	40	16	14	30
2021	41	15	14	30
2022	42	15	13	30
2023	43	14	13	30
2024	44	14	12	30
2025	45	13	12	30

Tahlil natijalariga ko'ra, 2020–2025 yillar mobaynida jahon kimyo sanoatida Xitoyning ulushi izchil o'sib borgan bo'lib, 40 foizdan 45 foizgacha oshgan. Bu holat mamlakatda sanoat ishlab chiqarishining kengayishi, investitsiyalar hajmining ortishi va

¹ Tahlillar natijasida muallif ishlamasi

resurslardan yuqori samaradorlik bilan foydalanish orqali global etakchilik mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Aksincha, Evropa Ittifoqi va AQSH ulushlarida bosqichma-bosqich pasayish kuzatilib, mos ravishda Evropa ulushi 16 foizdan 13 foizga, AQSH ulushi esa 14 foizdan 12 foizga tushgan. Bu esa mazkur hududlarda ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi, ekologik talablarning kuchayishi va ishlab chiqarishning qisman boshqa hududlarga ko'chishi bilan izohlanishi mumkin.

Shu bilan birga, "boshqa davlatlar" ulushining barqaror ravishda 30 foiz darajasida saqlanib qolishi jahon kimyo sanoatida diversifikatsiyalangan struktura mavjudligini anglatadi. Umuman olganda, jadval ma'lumotlari global kimyo sanoatida ishlab chiqarish markazining asta-sekin Osiyo hududiga siljib borayotganini va resurslardan foydalanish samaradorligi hamda masshtab effekti ustuvor ahamiyat kasb etayotganini tasdiqlaydi. Bu tendensiya kelgusida ham global raqobat muhitida hududiy disbalanslarning chuqurlashishi ehtimolini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ko'rsatkichning keskin tebranishsiz, izchil o'sishi mazkur jarayonda tizimli va uzoq muddatli omillar — resurslardan samarali foydalanish, investitsiyalarning maqsadli yo'naltirilishi, texnologik modernizatsiya va boshqaruv samaradorligining oshishi ustuvor ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2023–2025 yillarda o'sishning mo'tadillashuvi tarmoqda barqarorlik shakllanganini, risklar nazorat ostiga olinganini va rivojlanish sifat jihatidan yangi bosqichga o'tayotganini anglatadi. Umuman olganda, mazkur dinamika ijobiy trendni namoyon etib, kelgusida ko'rsatkichning ekstensiv emas, balki intensiv o'sish omillari hisobiga yanada samarali rivojlanishini taxmin qilish imkonini beradi.

Zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tahlili shuni ko'rsatadiki, kimyo sanoatida iqtisodiy resurslardan foydalanish jarayoni raqamlashtirish, "yashil iqtisodiyot" tamoyillari va innovatsion texnologiyalar ta'sirida chuqur transformatsiyaga uchramoqda. Xususan, Evropa Ittifoqi mamlakatlarida kimyo sanoatida energiya samaradorligini oshirish natijasida 1990–2020 yillar davomida energiya sarfi taxminan 25 foizga qisqargan. Bu esa resurs tejamkorlik, ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yaqqol namoyon etadi.

Kimyo sanoati korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish jarayonini makroiqtisodiy darajada kompleks tahlil qilish tarmoq rivojlanishining asosiy tendensiyalarini, resurslardan foydalanish samaradorligini hamda raqobatbardoshlik darajasini baholash imkonini beradi. Mazkur yondashuv keyingi tadqiqotlarda Germaniya, Xitoy, AQSH va Qozog'iston tajribasi misolida iqtisodiy resurslardan foydalanish modellarini chuqur tahlil qilish uchun nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Jahon kimyo sanoati rivojlanish dinamikasini kompleks baholash tarmoqda iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash va global industrial tendensiyalarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, yuqori kapital va resurs talabchan tarmoq sifatida kimyo sanoatida ishlab chiqarish hajmlarining o'zgarishi resurslardan foydalanish samaradorligi, innovatsion rivojlanish darajasi va texnologik modernizatsiya jarayonlari bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, 2020–2025 yillar davomida jahon kimyo sanoati hajmining dinamikasi quyidagi rasmda aks ettirilgan.

Xulosa va takliflar

Kimyo sanoati korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish tarmoqning raqobatbardoshligi, barqaror rivojlanishi va milliy iqtisodiyot o'sishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Resurslardan oqilona foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni qisqartirish va qo'shilgan qiymatni ko'paytirishga xizmat qiladi, shu bilan birga tarmoqning multiplikativ ta'sirini kuchaytiradi. Zamonaviy sharoitda raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalar va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish resurslardan foydalanish samaradorligini yanada oshirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lmoqda, bu esa kimyo sanoatini strategik jihatdan barqaror va samarali rivojlantirish uchun muhim asos yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Портер. М. Конкурентное преимущество: как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость / М. Портер. – М.: Альпина Паблишер, 2016. – 715 с.
2. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура / М. Кастельс. – М.: ГУ ВШЭ, 2000. – 608 с.
3. Smil V. Energy and Civilization: A History / V. Smil. – Cambridge: MIT Press, 2017. – 552 p.
4. Romer P. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. – 1990. – Vol. 98, No. 5. – P. S71–S102.
5. Ковалев В.В. Финансовый анализ: методы и процедуры / В.В. Ковалев. – М.: Финансы и статистика, 2002. – 560 с.
6. Икрамов М.А. Саноат иқтисодиёти ва унинг ривожланиш йўналишлари / М.А. Икрамов. – Т.: Фан, 2018. – 320 б.
7. Бурханов А.У. Саноат корхоналарида иқтисодий самарадорликни ошириш масалалари / А.У. Бурханов. – Т.: Иқтисодиёт, 2020. – 256 б.
8. Иминов Т.К. Саноат тармоқларида инновацион ривожланиш ва ресурслардан фойдаланиш самарадорлиги / Т.К. Иминов. – Т.: Университет, 2019. – 280 б.
9. CEFIC. Facts and Figures of Chemical Industry. – Brussels, 2023
10. CEFIC. Facts and Figures of Chemical Industry. – Brussels, 2023
11. IEA. Energy efficiency report. – Paris, 2022
12. VCI. Portrait of the German Chemical and Pharmaceutical Industry Electronic resource Electronic resource Electronic resource. – Access mode: VCI official website.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

